



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Detallashtirilgan komponentli matnlar tavsifi

Komilova Dilnoza Muhammad qizi

Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
d.komilova0893@gmail.com +998998305880

Annotatsiya. Ushbu maqolada matnning tarkibiy elementi hisoblangan detal hususida mulohazalar, unga filologik yondashuv, matnning kichik elementi sifatida qarash, e'tirof etish, so'z birikmalari, gap paradigmaları, konseptual jihatdan tahlil qilish borasidagi nazariy masalalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: badiiy detal, konsept, reprezentatsiya, tasviriy detallar; aniqlashtiruvchi detal, xarakter, badiiy matn, yashirin ma'no.

Pragmalingvistika tilshunoslik fanining yangi sohalaridan biri bo'lib, uning shakllanishi Ch.Pirs, U.Ujems, D.Dyun, Ch.Morris kabi faylasuf olimlar nomi bilan bog'liq. Nolisoniy vositalarga semiotik (belgi nazariyasi) jihatdan yondashuv natijasida fanda ekstralingvistika sohasi yuzaga keldi. Professor A.Nurmonov belgi tushunchasi bilan bog'liq holda nutqiy faoliyatning ijtimoiy vazifasini ajratadi hamda uning axborot uzatish, qolaversa, poetik vazifa bajarishini alohida ta'kidlaydi. Bunda asosiy e'tibor axborot uzatish bilan birga uning qanday ifodalanishiga ham qaratiladi. Muayyan tilning barcha xususiyatlarini o'zida aks ettira oladigan har qanday matn lingvistika uchun lisoniy dalil bo'la olganidek, badiiy matn ham, ayniqsa, detal komponentli matnlar yoki detallashtirilgan matnlar ham ma'lum millatga xos bo'lgan tilning ifoda shakli sifatida matn tilshunosligi ilmiy paradigmaları asosida o'rganilishi mumkin. Ma'lumki, har qanday tilning taraqqiyoti undan foydalanuvchi til egalarining kundalik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ularning har qanday faoliyati lisoniy sistema elementlaridan foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Kommunikatsiya ishtirokchilarining lisoniy faoliyatga asoslangan o'zaro muloqoti til taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham badiiy matnda til bor bo'yi bilan gavdalanadi. Tilda esa xalqning ruhiyati, dunyoqarashi, aql-idroki, tafakkuri o'z ifodasini topadi. Badiiy matn verbal ifoda shakli sifatida og'zaki muloqotning har qanday turini o'zida aks ettiradi. Tilning bunday xususiyatlaridan foydalangan ijodkor badiiy matnda borliq haqidagi voqea-hodisalar badiiy tasvirida nolisoniy vositalardan ham unumli foydalanadi. Lisoniy tasvirga asoslangan nolisoniy ifoda vositalari badiiy matnda muallif nazarda tutgan xabarların hammasini ifodalay oladi. Badiiy matnda qo'llanadigan detallar ham muallifning kommunikativ maqsadini ifdalashga xizmat qiladi. Badiiy detal ham badiiy matnning asosiy komponentlaridan biri bo'lib, muallifning kommunikativ niyati va maqsadini yuzaga chiqaradi. Badiiy matnda ma'lum maqsad ifodasi uchun muallif tomonidan qo'llangan har bir detal mazmuniy strukturaning muhim qismi sanaladi. Badiiy asar muallifi yashirin mazmuniy strukturaga tegishli bo'lgan ayrim xabarlarni detallar orqali kodlaydi. Natijada detal tasviri bilan





kodlanayotgan xabar mazmuni implitsitlik xususiyatiga ega bo'ladi. Aynan shu o'rinda ta'kidlash lozimki, detalning o'zi nolisoniy ifoda vositasi hisoblanadi. Yozuvchi badiiy asarda nimanidir detalga aylantirar ekan, u badiiy matn muallifi nazarda tutgan axborotni ifodalashga xizmat qiluvchi belgiga aylanadi. Belgi semiologik birlikdir. Detal ham xuddi lisoniy vosita singari belgiga aylanishi bilanoq informativlik yukini zimmasiga oladi. Shuning uchun ham axborot ifodalashga xizmat qiluvchi detal kodlanuvchi tizimning maxsus turiga mansub bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. – М.: Прогресс, 1985. – С.471
2. Нурмонов А. Tanlangan asarlar III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б.34.
3. Черняков А.А. Художественная деталь как объект эстетического анализа: Автореф. дисс. ... канд. филол. Наук. – Астрахань, 1978. – С. 8.
4. Султонова М. Абдулла Қаҳҳор услуби. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 123.

